

**ISTIQLOL DAVRI O'ZBEK ADABIY TANQIDCHILIGIDA
METODOLOGIK YANGILANISH VA ESTETIK TAMOYILLAR**

Farg'ona davlat universiteti

4-kurs talabasi Yoqibova Salomatxon

Annotatsiya: maqolada mustaqillik yillarida o'zbek adabiy tanqidchiligining rivojlanish tamoyillari, sho'ro davri mafkuraviy qoliplaridan voz kechish va yangi ilmiy metodologiyalarning shakllanishi tahlil qilingan. Tadqiqotda badiiy matn talqinida estetik mezonlarning ustuvorligi va zamonaviy munaqqidlar ijodidagi yangicha yondashuvlar ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: adabiy tanqid, istiqlol adabiyoti, metodologiya, estetik ideal, germenevtika, badiiy talqin, milliy o'zlik, jadidshunoslik.

Abstract: the article analyzes the principles of the development of Uzbek literary criticism during the years of independence, the abandonment of the ideological patterns of the Shura era, and the formation of new scientific methodologies. In the study, the priority of aesthetic criteria in the interpretation of artistic text and new approaches in the works of modern critics are scientifically justified.

Key words: literary criticism, independent literature, methodology, aesthetic ideal, hermeneutics, artistic interpretation, national identity, modern studies.

Аннотация: в статье анализируются принципы развития узбекского литературоведения в годы независимости, отказ от идеологических моделей эпохи Шуры, формирование новых научных методологий. В исследовании научно обоснован приоритет эстетических критериев в интерпретации художественного текста и новые подходы в творчестве современной критики.

Ключевые слова: литературоведение, независимая литература, методология, эстетический идеал, герменевтика, художественная интерпретация, национальная идентичность, современные исследования.

KIRISH

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlab adabiyotshunoslik va adabiy tanqidchilik sohasida tub islohotlar amalga oshirildi. “Sotsialistik realism” metodining sun’iy cheklovlaridan voz kechish jarayoni munaqqidlar oldida mutlaqo yangi vazifalarni qo‘ydi. Prezident Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir” [1, 24-b]. Shu nuqtai nazardan, istiqlol davri tanqidchiligi nafaqat joriy jarayonni kuzatish, balki milliy o‘zlikni anglash vositasiga aylandi.

ASOSIY QISM

Istiqlol davri adabiy tanqidchiligini shartli ravishda quyidagi fundamental yo‘nalishlarda tahlil qilish mumkin:

1. Milliy merosni qayta anglash va estetik rehabilitatsiya. Mustaqillik yillarida adabiy tanqidning eng katta xizmati — qatag‘on qilingan ijodkorlar merosini xolis baholash bo‘ldi. Ozod Sharafiddinov o‘zining tadqiqotlarida adabiyotni mafkuradan xoli qilish va ijodkor shaxsi hurligini birinchi o‘ringa qo‘ydi [2, 45-b].

Ayniqsa, jadid adabiyoti namoyandalari ijodining badiiy-falsafiy asoslarini o‘rganish tanqidchilikning ustuvor yo‘nalishiga aylandi.

2. Metodologik plyuralizm va irfoniy tahlil. Bu davrda Ibrohim Haqqul o‘zbek tanqidchiligiga "irfoniy tahlil" metodini olib kirdi. Olimning fikricha, “Adabiyotni tasavvufdan, ilohiy ishqdan ayri holda tasavvur qilib bo‘lmaydi” [4, 112-b]. Bu yondashuv mumtoz adabiyotimiz va zamonaviy she’riyat o‘rtasidagi uzviylikni ilmiy asoslab berildi. Umarali Normatov esa “ijodiy laboratoriya” tushunchasini rivojlantirib, yozuvchi mahorati va uslubi masalalarini yangi bosqichga ko‘tardi [3, 78-b].

3. Zamonaviy nazariyalar va hermenevtik yondashuv. XXI asr boshlariga kelib, tanqidchilikda Bahodir Karimov, Uzoq Jo‘raqulov va Rahmon Qo‘chqor kabi olimlar tomonidan matnga struktural va hermenevtik yondashuvlar tatbiq etila boshlandi. Bahodir Karimov jadidshunoslik va XX asr adabiyotshunosligi metodologiyasini tizimli ravishda tadqiq etdi [5, 156-b]. Uzoq Jo‘raqulovning tadqiqotlarida esa badiiy asar mifologik va falsafiy qatlamlar uyg‘unligida tahlil qilindi [6, 89-b].

ILMIY TAHLIL VA NATIJALAR

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, istiqlol davri tanqidchiligida quyidagi natijalarga erishildi:

Talqin erkinligi: Asar sotsiologik emas, estetik hodisa sifatida baholanmoqda;

Metodologik rang-baranglik: Psixotahlil, mifopoetika va strukturalizm usullari keng qo‘llanilmoqda;

Janriy o‘zgarishlar: Adabiy o‘ylar, esse-tanqid va ijodiy portretlar salmog‘i ortdi.

Qozoqboy Yo‘ldoshevning tadqiqotlarida esa badiiy asarni talqin qilishning psixologik va pedagogik jihatlari yoritilib, “Yoniq so‘z” tushunchasi adabiy mezon sifatida o‘rtaga tashlandi [7, 54-b]. Bu esa tanqidchilikning kitobxon bilan muloqotini yanada jonlantirdi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, istiqlol davri o‘zbek adabiy tanqidchiligi o‘tgan 30 yildan ortiq vaqt mobaynida ulkan evolyutsion yo‘lni bosib o‘tdi. Bugungi kunda munaqqidlarimiz jahon adabiyotshunosligi yutuqlarini milliy zamin bilan uyg‘unlashtirmoqdalar. Bu esa adabiyotning nafaqat badiiy saviyasini, balki millatning ma’naviy intellektini yuksaltirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1) Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
- 2) Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – Toshkent: Sharq, 2004.
- 3) Normatov U. Ijod sehrining jozibasi. – Toshkent: Fan, 2007.
- 4) Haqqul I. Irfon va idrok. – Toshkent: Ma’naviyat, 1998.
- 5) Karimov B. XX asr o‘zbek adabiyotshunosligi: metodologiya va tamoyillar. – Toshkent, 2012.
- 6) Jo‘raqulov U. Hududsiz nuqta. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010.
- 7) Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
- 8) Quronov S. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018.